# Xalq so'zi

O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 3-may, № 86 (8709) Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# INVESTITSIYALAR – IQTISODIY TARAQQIYOTIMIZNING MUSTAHKAM DRAYVERI






## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etayotgan siz, azizlarni chin qalbimdan samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardimki, yildan-yilga yaxshi an'anaga aylanib borayotgan ushbu format doirasida yurtimizda dunyoning barcha qit'alaridan yangidan-yangi ishonchli hamkorlarimiz jam bo'lmoqda.

O'tgan uch yil davomida mazkur forum ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Bugungi tadbirimizga 93 ta davlatdan ikki yarim mingdan ortiq xorijiy mehmonlar kelgani ham forumning ahamiyati tobora ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu, o'z navbatida, mamlakatimizda ortga qaytmas tus olgan islohotlarga, o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yishga bo'lgan ulkan qiziqishdan dalolat beradi.

Hurmatli forum qatnashchilari!

Bugungi anjumanimiz global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo'lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to'g'ri kelmoqda.

Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi — vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko'rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlari so'nggi uch yil davomida pasaymoqda. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamaydi.

Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o'zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o'tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O'zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo'llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo'lib qolaveradi.

➡ 2

## BIZNES HAMJAMIYATI UCHUN CHINAKAM MULOQOT MAYDONI

*Toshkent bugun yana dunyo nigohida. Sayyoramizning barcha qit'asidan kelgan yirik investorlarning poytaxtimizda jam bo'lishi va o'zlarining mukammal loyiha hamda investitsiyalari bilan ishtirok etishi juda quvonarli, albatta. Negaki, dunyo qalqib turgan, jahonda investitsiya kiritish darajasi pasayib borayotgan, oziq-ovqat xavfsizligi masalalari xatarli tus olgan bir paytda 93 ta mamlakatdan 2,5 mingdan ortiq biznes va bank-moliya sohasi vakillarining O'zbekistonga yetib kelishi, bu yurtimizda investitsiya muhiti barqarorligi, tinchlik va xotirjamlik hukm surayotgani sharofatidan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.*

*Poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida o'tkazilgan uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi ochilishi oldidan ishtirokchilar O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar haqidagi videoroliklarni tomosha qilish imkoniga ega bo'ldilar.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etdi va nutq so'zladi.*

➡ 2

# XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARI BILAN UCHRASHUVLAR

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-may kuni Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Singapur Respublikasi Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng, Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Aqilbek Japarov, Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud boshchiligidagi delegatsiya, Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyot vaziri Abdulla bin Al Marriy boshchiligidagi delegatsiya, O'mon Sultonligi savdo, sanoat va investitsiyalarga ko'maklashish vaziri Qays bin Muhammad al-Yusuf, BMT Bosh kotibi o'rinbosari, Yevropa iqtisodiy komissiyasi Ijrochi kotibi Tatyana Molchan va Rossiya delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti yordamchisi Maksim Oreshkinni qabul qildi.**







Singapur Respublikasi Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng suhbat avvalida mamlakatimiz yetakchisiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi va forum yuksak darajada tashkil etilganini e'tirof etdi.

O'tgan bir yilda O'zbekiston — Singapur munosabatlarida ulkan natijalarga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikkita davlat tashrifi muvaffaqiyatli o'tkazildi, tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma loyihalar soni, shu jumladan, to'qimachilik va kimyo, qishloq xo'jaligi, logistika va boshqa tarmoqlarda izchil oshib bormoqda.

Kadrlar tayyorlash, investitsiyalar, turizm va jamoat xavfsizligini ta'minlash sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Oliy darajadagi kelishuvlar ustidan birgalikda samarali parlament nazoratini o'rnatish muhimligi ta'kidlandi.

Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Aqilbek Japarov suhbat avvalida O'zbekiston yetakchisiga Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarovning samimiy salomini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Qirg'iziston o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport va logistika sohalarida hamkorlikni kengaytirish, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko'rib chiqildi.

"Qambarota GES-1" va Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston temir yo'lini qurish loyihalarining amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida ko'p qirrali sheriklikning yangi kun tartibini shakllantirish masalalari ham muhokama qilindi.

Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud uchrashuv avvalida O'zbekiston yetakchisiga Podshoh Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, O'zbekistonda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bugungi kunda qo'shma loyihalar portfeli 30 milliard dollardan oshdi.

Mamlakatimizda energetika tarmog'ini rivojlantirishga eng ko'p investitsiya kiritgan "ACWA Power" kompaniyasi bilan samarali hamkorlik qilinayotgani ta'kidlandi.

Bu galgi forum doirasida "yashil" energetika, infratuzilma, sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohalarida 18 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bitimlar imzolanadi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'nalishlarda yangi loyihalarni ilgari surish zarurligi qayd etildi.

Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyot vaziri Abdulla bin Al Marriy uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri Shayx Muhammad Ol Maktum, vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi Valiahdi Shayx Holid Ol Nahayonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning qo'shma loyihalarini qo'llab-quvvatlash va ilgari surishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida sheriklik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, qo'shma korxonalar va to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar soni oshib bormoqda. Ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar portfeli 4 milliard dollarga yetdi.

Energetika, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti va boshqa sohalarda yirik loyihalarni tezlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'mon Sultonligi savdo, sanoat va investitsiyalarga ko'maklashish vaziri Qays bin Muhammad al-Yusuf uchrashuv boshida davlatimiz rahbariga O'mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomini yetkazdi.

O'zaro manfaatli hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy yo'nalishlarda kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Energetika, transport, sog'liqni saqlash, turizm, geologiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, kimyo sohalarida, shu jumladan, O'zbekiston — O'mon investitsiya kompaniyasi ko'magida loyihalarni amalga oshirish uchun katta salohiyat borligi qayd etildi.

Yaqin fursatda Hukumatlararo komissiya yig'ilishi va qo'shma biznes forumini o'tkazishga kelishib olindi.

Transafg'on temir yo'lini qurish hamda O'zbekiston — Turkmaniston — Eron — O'mon transport yo'lagini ilgari surish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

BMT Bosh kotibi o'rinbosari, Yevropa iqtisodiy komissiyasi Ijrochi kotibi Tatyana Molchan suhbat avvalida Prezidentimizga BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

Mintaqa va mamlakat miqyosidagi loyihalarni amalga oshirish hamda o'tgan yil noyabr oyida Boku shahrida BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari uchun maxsus dasturi (SPEKA) birinchi sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni ro'yobga chiqarish masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari komissiya 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi muhim o'rnini, uning transport, innovatsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va gender tenglik, O'zbekistonning JSTga qo'shilishi masalalaridagi ko'magini qayd etdi.

2030-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan SPEKAni rivojlantirish konsepsiyasini tez fursatda qabul qilish, dasturning Maqsadli jamg'armasini ishga tushirish va qator konseptual hujjatlarni tayyorlash muhimligi ta'kidlandi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti yordamchisi Maksim Oreshkin uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi hamda forumning muvaffaqiyatli natijalari bilan tabrikladi.

O'zbekiston — Rossiya strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish doirasida oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tovar ayirboshlash barqaror sur'at bilan o'sayotgani, sanoat, energetika, transport, metallurgiya, kimyo va boshqa tarmoqlarda muhim loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Joriy yil 22 — 24-aprel kunlari Toshkent shahrida o'tgan navbatdagi "INNOPROM. Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat ko'rgazmasi yakunlari yuksak baholandi.

Yuqori texnologiyalar, ta'lim, sport, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasidagi hamkorlikka alohida e'tibor qaratildi.

**O'zA.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

# INVESTITSIYALAR — IQTISODIY TARAQQIYOTIMIZNING MUSTAHKAM DRAYVERI

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

← 1

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Biz mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat’iy qadamlar tashladik. Aynan shu bois har bir sarmoyador o‘zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiryapmiz.

Sizlar yaxshi bilasiz, bundan yetti yil muqaddam biz uchun oson bo‘lmagan, lekin katta marralarni ko‘zlagan tizimli islohotlarni boshlagan edik. Biz iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirishni asosiy maqsadimiz etib belgiladik.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sdi. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha bu o‘sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag‘lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

O‘tgan yilning o‘zida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar ko‘paydi. Shu o‘rinda energetika sohasida “ACWA Power”, “Masdar”, “Total Eren”, “Voltalia”, “Sallk” va “Aksa”; kimyo sanoatida “Air Products”, “Indorama” va “CAMCE”, tog‘-kon va metallurgiyada — “Orano” va “DANIELI”, avtomobilsozlik va elektrotexnika yo‘nalishlarida “BYD”, “Kia” va “Samsung”, qurilish sohasida “Kos” va “KNAUF” kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihalari ishga tushirilgani va yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratilganini katta mamnuniyat bilan ta’kidlamoqchiman.

Bugungi forum doirasida dunyoning ilg‘or kompaniyalari hisoblangan “Linde”, “Orascom”, “DataVolt”, “Bonafarm”, “PASHA Holding” va boshqa sheriklarimiz ishtirokida yangi yirik loyihalarga start beramiz.

Fursatdan foydalanib, bu ishga o‘zining munosib hissasini qo‘shayotgan xorijiy investorlarga, barcha hamkorlarimizga o‘zimning chuqur va samimiy minnatdorligimni izhor etaman.

Biz tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida boshqa ustuvor yo‘nalishlarda qator aniq choralarni ishlab chiqqanmiz.

Endilikda xorijiy sarmoyadorlar aksiyalardan olinayotgan dividendlar bo‘yicha soliqlardan uch yil muddatga ozod etiladi.

Yaqinda Xususiylashtirish to‘g‘risidagi qonunni qabul qildik. 250 ta yirik korxonaning davlat ulushini va salkam 1000 ta ko‘chmas mulk obyektlarini sotish, 12 ta korxona aksiyalarini fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) uchun yangi dastur ham ishga tushirildi.

Tadbirkorlar barqarorligi reytingi joriy etildi. Yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlari uchun soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi.

Energetika yo‘nalishidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tajribasini ijtimoiy va boshqa infratuzilma sohalarida ham keng tatbiq etishni rejalashtirganmiz. Xususan, Xitoyning “CITIC” va “CAMCE” kompaniyalari bilan irrigatsiya va avtomobil yo‘llari, Fransiyaning “Suez” va “Veolia” kompaniyalari bilan ichimlik suvi ta’minoti, “Inter Health” va “Pure Health” arab kompaniyalari bilan zamonaviy tibbiyot muassasalarini qurish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Sanoat zonalari infratuzilmasini budjet mablag‘lari hisobidan rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz. Tadbirkorlarga yer ajratishning zamonaviy shaffof tamoyillari, ya’ni auksion savdo tizimi yo‘lga qo‘yildi. Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish doirasida qonunchilikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan 60 dan ortiq normativ hujjatlar qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilib, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiya ishlab chiqilmoqda. O‘tgan yili Toshkentda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tadbirlarni o‘tkazdik.

Nizolarni adolatli hal etish maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Uning tarkibida Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlardan 90 dan ortiq nufuzli hakamlar o‘rin olgan.

Investorlar uchun yana bir muhim ko‘rsatkich. Oxirgi yetti yilda oliy ta’lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga oshdi, oliy o‘quv yurtlari soni 200 tadan ortdi.

O‘zbekistonda 90 dan ortiq davlatlarga vizasiz rejim joriy etildi.

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Bizning asosiy maqsadimiz — O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir.

Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiy mulk daxlsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta’minlanishini o‘z zimmasiga olmoqda.

Biz bu tamoyillarni o‘tgan yili umumxalq referendumida qabul qilingan yangi Konstitutsiyamizda qat’iy muhrlab qo‘ydik.

Sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida bugun sizlarga qator aniq takliflarni bildirmoqchiman.

Birinchidan, yangi tahrirdagi “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilamiz. Ushbu hujjat Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalari va standartlariga muvofiq ishlab chiqildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga bu boradagi yaqin hamkorligi uchun alohida minnatdorlik izhor etmoqchiman.

Ikkinchidan, tez orada mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi ish boshlaydi. Ushbu sud O‘zbekiston sud-huquq tizimida alohida o‘ringa ega bo‘ladi. Buning uchun yaqin muddatlarda maxsus qonunni qabul qilamiz. Protsessual kodekslarga ushbu xalqaro tijorat sudi qarorlari to‘laqonli ijro etilishiga oid me’yorlarni ham kiritamiz.

Uchinchidan, yaqin vaqtda sanoat zonalari tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlarni joriy etamiz.

Yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Sanoat zonalarini boshqarishda xususiy operatorlar, jumladan, yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalb qilish amaliyoti kengaytiriladi. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatlari bo‘yicha cheklovlar ham bekor qilinadi.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha, ya’ni ikki barobar uzaytiriladi. Bunda qonunlar bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to‘liq saqlab qolinadi.

Bu masalalarning barchasini ertaga Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishida batafsil muhokama qilamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Tizimli islohotlarni davom ettirish, kuchli va farovon davlat qurish maqsadida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlarini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash bo‘yicha 100 ta aniq vazifa o‘z aksini topgan.

2030-yilga borib aholi daromadlarini ikki barobar oshirish va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

Iqtisodiyotda chuqur transformatsiya jarayonlarini, qulay investitsiya va biznes muhiti hamda sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatni yaratishni izchil davom ettiramiz.

Shu o‘rinda o‘zaro manfaatli hamkorligimizni kengaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

**Birinchi yo‘nalish: “yashil” energetika.** Energetika tarmog‘i samaradorligini oshirish butun mintaqamiz uchun dolzarbdir. Bu borada mamlakatimizda 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda.

Biz 2030-yilgacha 20 gigavattdan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz.

O‘tgan yilning o‘zida 1,4 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini strategik sheriklarimiz bo‘lgan “Masdar”, “Gezhouba”, “China Energy” kompaniyalari bilan ishga tushirdik. Shuningdek, “ACWA Power” bilan “yashil vodorod” ishlab chiqarish loyihasini ham boshlab yubordik.

Eng e’tiborli jihati — ushbu muhim loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Bugun forum doirasida siz, investorlarimiz uchun qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistondagi gidroelektr stansiyalarini birgalikda qurish loyihalari taqdimotini o‘tkazamiz. Ushbu yo‘nalishda barcha davlatlar yetakchi kompaniyalarini ochiq muloqot va amaliy hamkorlikka taklif etamiz.

**Ikkinchi yo‘nalish: bank-moliya sohasi.** So‘nggi yillarda mamlakatimizda ko‘plab xususiy banklar ochildi. Bozorimizga Yevropaning yetakchi banklari kirib keldi. Qator raqamli banklar o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O‘zbekistonning yirik banklaridan biri bo‘lgan “Asakabank”ni xususiylashtirish bo‘yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan boshqa yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiylashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

Moliyaviy resurslarga talabni qondirish uchun kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar qayta ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekistonda xalqaro moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ boshqaruv sifati oshishi, yangi yetakchi bank-moliya institutlari kirib kelishini kutib qolamiz.

**Uchinchi yo‘nalish: foydali qazilmalar.** O‘zbekiston — mineral resurslar va muhim metallarning katta bazasiga ega mamlakatdir. Yurtimizda oltin, mis, volfram, kumush, uranning ulkan zaxiralari mavjud. Nodir va noyob minerallar qatorida litiy, magniy, molibden, germaniy, vanadiy va indiy kabi 30 dan ortiq metallarning zaxiralariga alohida e’tibor qaratishni istardim.

O‘tgan oyda Yevropa Ittifoqi bilan o‘ta muhim xomashyo sohasida strategik hamkorlik o‘rnatildi. Amerika Qo‘shma Shtatlari va Buyuk Britaniya bilan ham shunday bitim ustida ish olib boryapmiz.

Bu borada zamonaviy xalqaro tajriba asosida yangi tahrirdagi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinadi. Shu o‘rinda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga bu ishdagi salmoqli hissasi uchun alohida rahmat aytmoqchiman.

Strategik xomashyolarni chuqur qayta ishlash va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun yetakchi kompaniyalarni O‘zbekistonga taklif etamiz.

**To‘rtinchi yo‘nalish: mamlakatning IT transformatsiyasi.** Bir yil ichida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti ikki barobar oshdi. Kelajakda bu ko‘rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazishni reja qilganmiz.

IT-park rezidentlari soni o‘n barobar ko‘payadi, kelgusida 100 ming yangi ish o‘rni yaratiladi. Bundan tashqari, uning bazasida xorijiy kompaniyalar uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi yaratilmoqda.

Bu borada Saudiya Arabistonining “Data Volt” kompaniyasi bilan “yashil” energiya asosida ishlaydigan “Ma’lumotlar markazi”ni barpo etyapmiz. Bu mamlakatimizni raqamli iqtisodiyotga o‘tkazish va sun’iy intellekt asosida texnologiyalarni joriy etishga ulkan turtki bag‘ishlaydi, deb hisoblaymiz.

**Beshinchi yo‘nalish: transport infratuzilmasini rivojlantirish.** Qulay va zamonaviy transport tizimlarini yaratish vazifasiga ustuvor e’tibor qaratyapmiz.

Temir yo‘l sohasida tub islohotlar olib borilmoqda, tarmoqqa xususiy investorlarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Pullik avtomobil va tezyurar temir yo‘llarni qurish bo‘yicha qo‘shma loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Toshkent, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarini rivojlantirish va yangilarini qurish bo‘yicha salohiyatli xorijiy investorlar bilan hamkorlik loyihalari tayyorlanmoqda.

Ma’lumki, biz xorijiy sheriklarimiz bilan birgalikda Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston va O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston temir yo‘llarini qurish bo‘yicha dastlabki ishlarni boshladik.

Ushbu strategik loyihalar mintaqadagi geoiqtisodiy vaziyatni butunlay o‘zgartirib, Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G‘arb bilan bog‘laydigan global tranzit markaziga aylantiradi.

Biz investorlarni va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga, Buyuk Ipak yo‘lini zamonaviy asosda qayta tiklashga taklif qilamiz.

Aziz do‘stlar!

Yangi O‘zbekiston — beqiyos imkoniyatlarga ega, adolatli va jadal rivojlanayotgan dunyoviy mamlakatdir.

Biz har kuni hayotga tatbiq etayotgan ulkan g‘oya va buyuk orzularimizning asosiy ilhom manbai — bu, eng avvalo, mehnatkash va oliyjanob xalqimizdir.

Shuni alohida ta’kidlashni istar edimki, bugun bu yerda yig‘ilgan investorlar o‘zlarining eng ilg‘or texnologiya va tajribalari, yangi taklif va yondashuvlari bilan bizni faqat olg‘a yurishga undaydi.

Sizlarga muhim bir fikrni yetkazmoqchiman: har bir tashabbus, har bir loyihangiz bo‘yicha davlatimiz, hukumatimiz a’zolari sizlarga yelkadosh bo‘lib, yoningizda turib, ularni to‘liq amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Shunday qilsak, sizlarga ma’qul bo‘ladi, deb o‘ylayman.

**Investitsiyalar — bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir.**

Hech shubhasiz, bugungi Xalqaro investitsiya forumi va sermahsul muzokaralar amaliy hamkorligimizni sifat va mazmun jihatidan mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishiga ishonaman.

Barchangizga anjumanimizda ishtirok etayotganingiz uchun yana bir bor tashakkur izhor etaman.

E’tiboringiz uchun katta rahmat.

# BIZNES HAMJAMIYATI UCHUN CHINAKAM MULOQOT MAYDONI



← 1

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida bugungi anjuman global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo‘lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to‘g‘ri kelayotganini qayd etdi.

Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdoning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi — vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari so‘nggi uch yil davomida pasaymoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti.

“Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o‘zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o‘tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O‘zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo‘lib qolaveradi”, dedi Prezident.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sdi. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha bu o‘sish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag‘lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

Davlatimiz rahbari sarmoyadorlar huquqlari himoyasini kuchaytirish maqsadida qator aniq takliflarni bildirdi.

Iqtisodiyotda chuqur transformatsiya jarayonlari, qulay investitsiya va biznes muhiti hamda sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatni yaratish izchil davom ettirilishini ta’kidlab, o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Bular “yashil” energiya, bank va moliya, transport infratuzilmasi, raqamli transformatsiya va boshqalar.

“Sizlarga muhim bir fikrni yetkazmoqchiman: har bir tashabbus, har bir loyihangiz bo‘yicha davlatimiz, hukumatimiz a’zolari sizlarga yelkadosh bo‘lib, yoningizda turib, ularni to‘liq amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Investitsiyalar — bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir”, dedi Prezident nutqining yakunida.

Shu o‘rinda ta’kidlash zarur, Toshkent investitsiya forumi yil sayin xalqaro ishbilarmon doiralarda tobora yuksak e’tirof qozonmoqda.

Xorijlik sarmoyadorlarning forumga qiziqishi yuqoriligini imzolanayotgan yangi shartnomalar misolida ham ko‘rish mumkin. Aytish joizki, bu galgi forum samarasi nafaqat davlat miqyosida seziladi, balki har bir oilaga kirib boradigan megaloyihalar uchun asos bo‘ladi. Bunday fikrlar xorijlik ekspertlar tomonidan bildirilyapti.

Ma’lumotlarga ko‘ra o‘tgan yili 11 milliard dollarlik 164 bitim va shartnoma kuchga kirgan, uchinchi anjumanda esa 20 milliard dollardan ziyod qiymatga ega jami 90 ta kelishuvga erishish kutilyapti. Eng muhimi, muntazam ravishda O‘zbekistonga qiziqish ortib, iqtisodiyotimizga sarmoya kiritish istagidagi davlatlar ro‘yxati kengaymoqda.

Xorijlik ekspertlar fikricha, ayniqsa, xalqaro maydonda kuzatilayotgan inqiroz davrida Toshkent xalqaro investitsiya forumining muhim ahamiyati ko‘zga yaqqol tashlanmoqda.

— Forumda aytib o‘tilganidek, hech bir davlat bugungi kunning o‘tkir muammolarini bir o‘zi yenga olmaydi, — deydi amerikalik investor Joys Uilyams. — Biz o‘z sarmoyamizni O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyoti uchun kiritar ekanmiz, faqat foyda olishni ko‘zlamaymiz. Balki bu yerda sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, tibbiyot sohasini rivojlantirish, qayta ishlash kabi sohalarning barqaror taraqqiy etishiga hissa qo‘shamiz. Bu esa yangi ish o‘rinlari ochish hamda aholi farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

So‘nggi uch yilda mazkur forum ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg‘or g‘oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylangani haqida ham fikrlar bildirildi.

— Ayniqsa, anjumanda xorijiy investorlarni uch yil muddatga aksiyalar va dividendlar bo‘yicha soliqlardan ozod qilish haqida aytilgani ko‘plab sarmoyadorlarni mamnun etdi, — deydi kanadalik forum qatnashchisi Nasser Faser Ma’sud. — Bu yangi O‘zbekiston eshigi investorlar uchun yanada kattaroq ochilishi demakdir. Mamlakatingizda xorijiy sarmoyadorlar uchun yildan-yilga qulay biznes muhiti yaratilayotgani ularning safini kengaytirmoqda. Bu galgi forum buni isbotlab turibdi.

Sarmoyadorlar biror-bir davlatga investitsiya kiritishga qaror qilganida, eng avvalo, mamlakatdagi iqtisodiy o‘sish darajasi, suv tanqisligi, cho‘llanish va boshqa jihatlarga ahamiyat qaratadi. Shu ma’noda, forumda ishtirok etgan investorlar O‘zbekiston hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida panel sessiyalarda qatnashdi. Bunda dunyoda eng global masala bo‘lib turgan suv tanqisligi muammolari o‘rganildi, uning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

— Tan olish kerak, suv tanqisligi dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan global muammolardan biri, — deydi O‘zbekistonning Ozarbayjondagi faxriy konsuli Kyanan Jalilov. — Bu jihatdan investorlar, eng avvalo, tejamkor texnologiyalardan unumli foydalanishi lozim. Panel sessiyada yangi muqobil, ilg‘or texnologik yechimlar, O‘zbekiston uchun suvni tejash texnologiyalaridan foydalanish kabi mavzularda muloqotlar o‘tkazildi. Har ikki davlat rahbarlari uchrashuvlarida ham bu kabi muammolar ko‘tarib chiqilgan. Aytmoqchimanki, O‘zbekiston xorijiy investorlar uchun ochiq mamlakat ekan, bu jihatlarga ham e’tibor qaratilishi lozim.

Darhaqiqat, O‘zbekistonning barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyoti, qulay jug‘rofiy joylashuvi, zamonaviy transport kommunikatsiyalari, sarmoya jalb etish bo‘yicha puxta va ishonchli strategiyasi dunyo davlatlari ishbilarmonlarining hamkorlikka qiziqishini oshirmoqda.

Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining birinchi kuni sermahsul muzokaralar, ochiq muloqotlar va foydali kelishuvlar ruhida o‘tdi.

**Faxriddin BOZOROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# YANGI O‘ZBEKISTON CHET EL KOMPANIYALARINING ISHONCHLI SHERIGIGA AYLANMOQDA

### Xorijiy ekspertlar va ishtirokchilar uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi haqida

*2-may kuni poytaxtimizda uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi o‘z ishini boshladi. Forumga dunyoning 93 mamlakatidan 2,5 mingdan ziyod xorijiy ishbilarmon va siyosiy doiralar vakillari tashrif buyurdi.*

*Forumda bevosita ishtirok etayotgan va uni kuzatib borayotgan xorijiy ekspertlar o‘z sharhlarida ushbu tadbir O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan strategik tashabbus hamda loyihalarni e’lon qilish platformasiga aylanganini ta’kidlamoqda.*

## Aks sado

**Nina LINDE,**
**Latviya Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot instituti direktori, professor:**

— O‘tgan vaqt mobaynida Toshkent xalqaro investitsiya forumi Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik biznes muzokaralar platformasi maqomiga ega bo‘ldi.

Bugun tadbirda investitsiyaviy, savdo-iqtisodiy hamkorlikni oshirishning eng dolzarb masalalari muhokama qilinmoqda, biznes yuritishda yangi g‘oyalar va yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Toshkentga dunyoning 93 davlatidan ikki yarim mingdan ziyod xorijlik mehmonlar tashrif buyurgani forumning ahamiyati tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

O‘zbekistonda muntazam o‘tkazib kelinayotgan bunday tadbirlar mamlakatdagi investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, erkin savdo yo‘lidagi barcha to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish va sarmoyaviy faoliyatni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston rahbariyati tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar samaradorligining muhim ko‘rsatkichi shundan iboratki, o‘tgan yil yakunida iqtisodiy o‘sish 6 foizni tashkil etdi. Inflyatsiya darajasi 9 foizga tushdi. Tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari izchil o‘sib bormoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlanib qolinmoqda.

**Moris GATTAS,**
**Qatarning “Power International Holding” kompaniyasi bosh direktori o‘rinbosari:**

— So‘nggi 6 oy ichida O‘zbekistonga bir necha marotaba tashrif buyurdim va mamlakatda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasi — ijobiy o‘zgarishlarning guvohiga aylandim.

Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari va mamlakatni barqaror rivojlantirish yo‘lida qabul qilayotgan qarorlari natijasida yangi O‘zbekiston Markaziy Osiyoda chet el kompaniyalari uchun eng ishonchli hamkorga aylandi. O‘zbekiston rahbarining forumdagi nutqida ta’kidlangan “Bizning asosiy maqsadimiz — O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir”, degan so‘zlari buning yaqqol isbotidir.

Davlatda bozor munosabatlarini rivojlantirish, investorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratish, xususiy mulk daxlsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta’minlanishi tamoyillari O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangani, shubhasiz, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Timoti SMART,**
**Buyuk Britaniya elchisi:**

— Yangi O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga harakat qilmoqda. Ishbilarmonlik muhiti va ekotizimni rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini topishga, Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarini kengaytirishga birgalikda intilamiz. 2016-yil oxiridan buyon mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish darajasi menda katta taassurot qoldirdi. Bu, haqiqatan ham, ajoyib. Ta’limdan tortib “yashil” iqtisodiyotgacha bo‘lgan sohalarda hamkorlikda ishlashimiz mumkin bo‘lgan ko‘plab imkoniyatlarni ko‘ryapman.

**“Dunyo” AA.**

**Xitoyda “Surxondaryo — Urumchi” savdo uyi ish boshladi.**

Uchrashuv

## O‘zbekiston — Singapur: O‘ZARO ALOQALARNING MUHIM JIHATLARI MUHOKAMA QILINDI

*Shu yil 2-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Singapur Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.*

Uchrashuv avvalida Singapur delegatsiyasi vakillari ikki mamlakat rahbarlarining tashriflari natijasida O‘zbekiston va Singapur o‘rtasidagi do‘stona aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilganini alohida e’tirof etdilar.

Muloqot chog‘ida parlamentlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, ilm-fan va ta’lim, savdo-iqtisodiy hamda davlat boshqaruvi va yuqori malakali kadrlar tayyorlash masalalari, korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi amaliy aloqalar muhokama qilindi.

Shuningdek, parlamentlararo faol hamkorlik mamlakatlarimiz o‘rtasidagi barcha darajadagi munosabatlarni rivojlantirishda muhim mexanizmlardan biri ekanligi qayd etildi.

Yakunda parlamentlar qo‘mitalari o‘rtasida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga va “do‘stlik guruhlari” faoliyatini jadallashtirishga kelishib olindi.

## SAMARALI PARLAMENT NAZORATINI O‘RNATISHGA KELISHIB OLINDI

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilovning Singapur Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng boshchiligidagi delegatsiya a’zolari bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.*

Muloqotda keyingi yillarda ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli davlatlararo munosabatlarda yangi davr boshlangani, O‘zbekiston va Singapur xalqlari do‘stligi mustahkamlanib borayotgani alohida ta’kidlandi.

Uchrashuvda delegatsiya a’zolariga “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar, uning doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalarini ro‘yobga chiqarish borasidagi sa’y-harakatlar hamda Qonunchilik palatasi faoliyatining asosiy yo‘nalishlari haqida atroflicha ma’lumotlar berildi.

Konstruktiv va o‘zaro ishonch ruhida o‘tgan uchrashuv chog‘ida O‘zbekiston — Singapur o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalarni kengaytirish va uni yangi mazmun bilan boyitish, norma ijodkorligi sohasida tajriba almashish, madaniy-gumanitar almashinuv bo‘yicha muloqotlarni faollashtirish masalalari muhokama qilindi.

O‘z navbatida, Singapur Parlamenti Spikeri so‘nggi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan barcha sohada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni alohida e’tirof etib, Toshkent investitsiya forumi misolida buning guvohi bo‘lganini qayd etdi. Mazkur forum ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb masalalarni muhokama qilish hamda muhim ilg‘or g‘oyalarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylanganini yuqori baholadi.

Muloqot chog‘ida, shuningdek, mamlakatlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlik, transport-kommunikatsiya, turizm va boshqa sohalardagi aloqalar ko‘lamini yanada kengaytirish masalalari xususida ham so‘z yuritilib, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan birgalikda samarali parlament nazoratini o‘rnatishga kelishib olindi.

Uchrashuv samimiy va konstruktiv ruhda o‘tdi.

**“Xalq so‘zi”.**

## VAKILLIK ORGANLARI FAOLIYATIGA DOIR KONSEPSIYA ISHLAB CHIQILADI



*Oliy Majlis Senatida O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish doirasida mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish yo‘nalishi bo‘yicha ishchi guruh yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.*

Oliy Majlis Senatida

Mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini transformatsiya qilish, barcha ishlarni “aholi manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish, “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” g‘oyasini hayotimizga tatbiq qilish maqsadida O‘zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Senati Kengashining qarori bilan Senat raisligida komissiya va har bir yo‘nalish bo‘yicha ishchi guruhlar tashkil etildi.

Xususan, mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish yo‘nalishi bo‘yicha ishchi guruhi shakllantirildi.

Mazkur ishchi guruhning majlisida konsepsiya va uni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi loyihalarida mahalliy Kengashlar deputatlarining maqomi va faoliyatining asosiy kafolatlarini yanada kuchaytirish yo‘nalishi bo‘yicha vakillik organlarini tom ma’nodagi hokimiyat institutiga aylantirish, bu yo‘nalishda yangi tartib-taomillarni joriy etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tadbirda ishchi guruh a’zolarining qator vazifalari belgilab olindi. Xalq deputatlari Kengashlarining samarali faoliyat yuritishiga to‘sqinlik qilayotgan omil va sabablarni tahlil etish, vakillik organlari faoliyatiga oid xorijiy tajribani o‘rganish va shundan kelib chiqqan holda konsepsiya loyihasi yuzasidan takliflarni ishlab chiqish shular jumlasidandir.

**“Xalq so‘zi”.**

## O‘ZBEKISTONGA HAM, XORIJLIK SARMOYADORLARGA HAM FOYDALI

*Poytaxtimiz yana bir nufuzli anjumanga, ya’ni uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumiga mezbonlik qilmoqda. Unda qatnashish uchun dunyoning 93 ta davlatidan 2,5 ming nafardan ziyod mehmonlar tashrif buyurgani ham uning qanchalik ahamiyati yuksakligini ko‘rsatib turibdi. Muhimi, uning doirasida nafaqat O‘zbekiston, balki xorijiy davlatlar uchun manfaatli bo‘lgan taklif va g‘oyalar o‘rtaga tashlanmoqda.*

Mushohada

Xususan, forumning yalpi majlisida ishtirok etgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir qator tashabbuslar ilgari surildi, dolzarb mulohazalar bildirildi.

Asosiy mavzuga o‘tishdan oldin mazkur nufuzli forum nima uchun ayni shu vaqtda o‘tkazilayotganiga doir mulohazalarni bildirmoqchimiz.

Ma’lumki, keyingi davrda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan notinchliklar hamda global ekologik inqirozlar tufayli jahon iqtisodiyoti murakkab vaziyatni boshdan kechirmoqda. Aniq aytadigan bo‘lsak, tovar hamda xizmatlarni yetkazib berish zanjirlarida yaqqol uzilish ko‘zga tashlanmoqda. Natijada xalqaro savdo pasaymoqda, investitsiya oqimlarida ham kamayish ochiq sezilyapti. Buning salbiy oqibati sifatida birgina o‘tgan yilning o‘zida rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamayganligini keltirish mumkin.

Shu kabi holatlar investorlar uchun kurashni yuzaga keltirib chiqargani ham bor gap. Shu bois davlatimiz rahbari tomonidan ta’kidlanganidek, bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o‘zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o‘tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O‘zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo‘lib qolaveradi.

Xo‘sh, O‘zbekistonda investorlarni jalb etish uchun nimalar qilindi va yana oldimizda qanday vazifalar turibdi?

Avvalo, yurtimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish yo‘lida dadil qadamlar tashlanganini aytish zarur. Pirovardida so‘nggi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag‘lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilingani ham diqqatga sazovor.

Yana bir misol. Energetika sohasida dunyoning yetakchi kompaniyalari va yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya hamda sanoat loyihalari ishga tushirildi va natijada yuz minglab yangi ish o‘rinlari ochildi.

Shularga mos ravishda O‘zbekistonda xorijiy investorlarga dividend solig‘idan imtiyozlar berish, xususiylashtirish jarayoni huquqiy asoslarini mustahkamlash va xususiylashtirish dasturini kengaytirish, tadbirkorlar barqarorligi reytingini joriy qilish, sanoat zonalari infratuzilmasini rivojlantirish, yerni ajratishning shaffof tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muayyan choralar ko‘rilmoqda. Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish doirasida milliy qonunchilikni uyg‘unlashtirish ishlari tobora jadallashib borayotir. Qolaversa, nizolarni adolatli hal etish uchun Toshkent xalqaro arbitraj markazi tuzilgan bo‘lib, u muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiya ishlab chiqilayotganini ham ta’kidlash o‘rinli.

Davlatimiz rahbari xorijiy investorlar bilan o‘zaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga alohida to‘xtalib o‘tdi. “Yashil” energetika, bank-moliya sohasi, foydali qazilmalarni birgalikda o‘zlashtirish, mamlakatning raqamli transformatsiyasi shular jumlasidandir. Biz qachonki, shu sohalarni rivojlantira olsak, ana shunda kutilgan natijalarga erishamiz.

Ishonamizki, bo‘lib o‘tayotgan xalqaro forum bu borada biz uchun ham, chet ellik investorlar uchun ham foydali muloqot maydoni bo‘lib xizmat qiladi. Yakunda aytib o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha O‘zbekistonga sarmoya kiritadigan investorlar safi kengayadi. Bu esa O‘zbekiston xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylanadi, deganidir.

**Anvar TO‘YCHIYEV,**
**Oliy Majlis Senatining**
**Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator.**

Munosabat

## JOZIBADORLIK DARAJASI OSHADI, INVESTORLARNI JALB QILISH IMKONIYATI KENGAYADI

*Bugun dunyo sahnida kuzatilayotgan beqarorlik sharoitida o‘zaro ishonchga asoslangan hamkorlik rivojlanishning muhim shartiga aylanib borayotgani oydin haqiqat. Bu, ayniqsa, iqtisodiyot va investitsiya yo‘nalishlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.*

Hozirgi shiddatli raqobat sarmoyadorlar uchun biznes yuritishda qulay muhitni yaratib berish, huquqiy kafolatlarni taqdim etish, imkoniyatlarni yanada kengaytirishni taqozo qiladi. Shu ma’noda, 2022-yildan boshlab an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi bu borada muhim platforma vazifasini o‘tashi, shubhasiz. Negaki, unda davlatimiz rahbari tomonidan xorijlik sarmoyadorlar manfaatlariga mos keladigan bir qator dolzarb g‘oyalar ilgari surildi, aniqrog‘i, ularning huquqlari himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladigan aniq takliflar bildirildi.

Dastlab, yangi tahrirdagi “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi aytildiki, bu hujjat Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalari va standartlarini milliy qonunchiligimizga moslashtirishda o‘ziga xos asos vazifasini o‘tab beradi. Bu borada bizni qo‘llab-quvvatlab turganlar ham bor. Ya’ni Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti shu yo‘nalishda biz bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Prezidentimiz tez orada yurtimizda Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi ish boshlashini ma’lum qildi. Bu biz va xorijlik hamkorlarimiz uchun ayni muddaodir. Chunki ushbu sud yurtimiz sud-huquq tizimida alohida o‘ringa ega bo‘ladi hamda investorlarning huquq va manfaatlarini himoyalaydi. Shu maqsadda maxsus qonun qabul qilinadi va protsessual kodekslarga mazkur xalqaro tijorat sudi qarorlari to‘laqonli ijro etilishiga oid me’yorlar kiritiladi.

Shuningdek, yaqin istiqbolda sanoat zonalari tizimida mutlaqo yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Natijada yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay sharoit yaratib beriladi. Sanoat zonalarini boshqarishda xususiy operatorlar, shu jumladan, yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalb qilish amaliyoti kengaytiriladi.

Yana bir muhim yangilik sifatida xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha uzaytirilishini alohida aytib o‘tish zarur. Muhimi, muddat uzaytirilishi barobarida qonunlarimiz bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar o‘z o‘rnida qoldiriladi. Bu esa yurtimizning jozibadorlik darajasini oshiradi hamda investorlarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ko‘rinib turibdiki, oldimizga qo‘yilayotgan vazifalar judayam salmoqli. Pirovard maqsad esa yangi O‘zbekistonning beqiyos imkoniyatlarga ega, adolatli va jadal rivojlanayotgan dunyoviy mamlakat sifatidagi maqomini har jihatdan mustahkamlashdan iborat.

Albatta, bu o‘z-o‘zidan bo‘lib qoladigan ish emas. Bunda katta kuch va salohiyat muhim rol o‘ynashini yaxshi tushunamiz. Ya’ni bu ulkan vazifalarni ro‘yobga chiqarish uchun nafaqat shu ishlarga mas’ul bo‘lgan idoralar vakillari, ayni chog‘da biz, senatorlardan ham katta mas’uliyat va fidoyilik talab etiladi.

**Ulug‘bek FAYZIYEV,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi.**

## HAYOTIY TASHABBUSLAR BUTUN DUNYOGA KATTA MANFAAT KELTIRADI

*Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi xalqimiz turmushini yaxshilash bo‘yicha O‘zbekiston dunyoga ochiq siyosat yuritayotganining yana bir yorqin namunasi bo‘ldi. Ushbu nufuzli forumda jahondagi nomdor tashkilotlardan vakillar qatnashayotgani, yurtimizdagi izchil iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarga yuqori baho berayotgani ham fikrimiz tasdig‘idir.*

*Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari rahbarlari mazkur tadbirning ahamiyati haqida o‘z munosabatlarini bildirdi.*

Munosabat

### Natijalar hayotimizda aks etmoqda

**Aktam HAITOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari, O‘zLiDeP fraksiyasi rahbari:**

— Prezidentimizning forumning ochilish marosimidagi ishtiroki va nutq so‘zlagani anjumanning nufuzini yanada oshirish barobarida, butun dunyo ishbilarmonlarida katta taassurot qoldirdi. Ushbu tadbir ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, yangi biznes imkoniyatlarini kashf etishga, ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochishga turtki bo‘ladi, desak, yanglishmaymiz.

Albatta, so‘nggi yillarda yangi O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan yuksak marralarga erishishda xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va yetakchi kompaniyalar bilan yaqindan hamkorlik qilayotgani, xorijiy investorlar uchun yangi imkoniyatlar eshigi ochilayotgani, shubhasiz, chet ellik malakali mutaxassislar, raqobatbardosh mehnat resurslarini jalb qilishga zamin yaratmoqda.

Islohotlar, birinchi navbatda, inson qadrini oshirishga qaratilgani, mahalliy va chet ellik investorlar teng huquqlar asosida biznes qilishi uchun imkoniyatlar yaratilayotgani O‘zbekistonga sarmoya kiritish istagida bo‘lgan xorijlik sarmoyadorlarga ishonch va kuch bag‘ishlamoqda.

O‘tgan davrda investorlar huquqlarini ishonchli himoya qilish borasida ham muayyan ishlar bajarildi. Chet ellik investorlar uchun ko‘chmas mulk sotib olish, O‘zbekistonga kelib-ketish va yashash shartlari keskin soddalashtirildi. Investorlar huquqlarini sud orqali kafolatli himoya qilish borasida katta qadamlar qo‘yilmoqda. Bu borada ma’muriy sudlarning nufuzi oshirilib, ularga katta vakolatlar berildi.

Asosiysi, natijalar faqat qog‘ozlarda emas, bevosita hayotimizda, tadbirkorlar faoliyatida aks etmoqda. Shu bois uchinchi marotaba o‘tkazilayotgan forum ham katta qiziqish bilan kutib olindi. Bular asosida davlatimiz rahbari tomonidan biznes rivojiga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildiki, ularning barchasi yurtimizda tadbirkorlikning keng quloch yoyishi, ishbilarmonlar safi yanada kengayishiga turtki beradi.

Investitsiya sohasini yanada rivojlantirish O‘zLiDeP g‘oya va maqsadlaridan biri bo‘lib, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarda partiyamiz faol ishtirokchi bo‘ldi. Yangi tahrirdagi “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishida ham partiya faollari va fraksiyamiz a’zolari tashabbuskor bo‘lishadi. Chunki ushbu hujjat, o‘z navbatida, yurtimizning iqtisodiy va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Forum ishida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan aniq takliflar partiyamiz maqsad va g‘oyalariga uyg‘un va hamohangdir. Shundan kelib chiqib, partiyamiz beshta ustuvor yo‘nalishdagi vazifalarni amalga oshirish borasida faol ish olib boradi.

### O‘zbekiston o‘zgardi, boshqalarni ham o‘zgarishga da’vat qilyapti

**Alisher QODIROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari, “Milliy tiklanish” DP fraksiyasi rahbari:**

— O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning investitsiya forumidagi nutqida qayd etilganidek, bugungi anjumanimiz global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo‘lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to‘g‘ri kelmoqda.

Ma’lumki, bugungi global geosiyosiy hamda geoiqtisodiy murakkabliklar va transformatsiyalar davrida har bir davlat o‘z yo‘lini topishga harakat qilmoqda. Investorlar uchun ham mislsiz kurash ketyapti. Bironta davlat muammolarini yakka o‘zi hal etolmasligi borgan sari isbot talab qilmaydigan haqiqatga aylangan bir sharoitda eng zarur investitsiya, bu — o‘zaro ishonch ekani ma’lum bo‘lyapti.

Shu ma’noda, mamlakatimizning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadigan bunday nufuzli anjumanning yurtimizda o‘tkazilayotganida ramziy ma’no bor.

Ta’kidlanganidek, O‘zbekiston islohotlarining birinchi qadami, bu — Markaziy Osiyo davlatlari bilan qo‘shnichilik munosabatlarini tiklash, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, bu orqali dunyoga yon qo‘shnilar bilan qanday hamkorlik qilish kerakligini ko‘rsatish bo‘ldi va bu qisqa davrda kutilganidan ham yaxshi natija berdi. Bu bugun dunyoda hukm surayotgan inqiroz asosida avvalo, ishonchsizlik yotgan bir sharoitda O‘zbekiston to‘g‘ri poydevorga tayangan holda o‘z kelajagini yaratayotganiga yaqqol misoldir.

Bugun transport yo‘laklari har bir davlat taraqqiyoti uchun juda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Afsuski, mamlakatimiz, xususan, mintaqamiz davlatlari ham jug‘rofiy joylashuvi tufayli dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqa olmaydi. Bitta mamlakat hududi orqali dengiz yo‘llariga chiqish imkoniyatiga ega davlatlar soni 40 dan ziyod bo‘lsa, ikkita mamlakat hududi orqali chiqadigan davlatlar atigi ikkita va ulardan biri — O‘zbekiston. Va bu ham tabiiy ravishda Markaziy Osiyo integratsiyasiga, uning markazida joylashgan O‘zbekiston taraqqiyotiga xalaqit bermoqda.

Lekin mamlakatimiz bugungi murakkabliklarga qaramay mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida qo‘shni Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlashga munosib hissa qo‘shish orqali strategik loyihalar — O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston yo‘nalishi orqali dengiz yo‘liga koridor ochishga harakat qilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston — Qirg‘iziston — Xitoy temir yo‘li nafaqat mamlakatimiz, qolaversa, Markaziy Osiyoni global tranzit markaziga aylantiradi.

Davlat rahbari forumdagi nutqida investorlar va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga chaqirib, shu orqali Buyuk Ipak yo‘lini zamonaviy asosda qayta tiklashga taklif qildi. Albatta, ushbu strategik loyihalar hayotiyligi butun dunyoga katta manfaat keltirishi, shubhasiz.

### Yurtimiz tajribasi e’tirof etilmoqda

**Ulug‘bek INOYATOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari, O‘zXDP fraksiyasi rahbari:**

— Prezidentimiz forumdagi nutqida jahon iqtisodiyotining o‘sish sur’atlari so‘nggi uch yil davomida pasayib borayotgani, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayotgani, 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamayganini qayd etdi. Bu fikr va raqamlar dunyoda ochiq, teng manfaatli hamkorlik bo‘yicha murakkab vaziyat yuzaga kelayotganini aniq tushunishimizga yordam berdi.

Haqli ravishda ta’kidlanganidek, hech bir mamlakat o‘tkir muammolarni yakka holda hal eta olmasligi haqidagi o‘zgarmas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Barchamizni quvontiradigani O‘zbekiston o‘zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyiliga qat’iy amal qilib, yuqori natijalarga erishmoqda.

Bunday yutuqlar keyingi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sgani, o‘tgan yilda umumiy o‘sish 6 foizni tashkil etgani, inflyatsiya 9 foizgacha pasayganida, pirovardida, xalqimizning daromadi oshgani, oilalarning hayoti yaxshilangani, iqtisodiy faollik ortayotganida ko‘rinmoqda.

Dunyo har kuni o‘zgarayotgan vaziyatda islohotlarni tizimli davom ettirish juda muhim. Shuning uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilindi. Bu hujjatda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish, ijtimoiy himoya va boshqa muhim yo‘nalishlar bo‘yicha keng aholi qatlamlari fikrlari asosida 100 ta vazifa belgilangani xalqimiz, davlatimiz dunyo davlatlari bilan ochiq, o‘zaro manfaatli hamkorlikka bundan keyin ham tayyor ekanini anglatadi.

2030-yilgacha aholi daromadlarini ikki barobar oshirish, bu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirish maqsad qilingan. Faol ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik bilan albatta, bunga erishish mumkin.

Kezi kelganda ta’kidlash kerakki, xalq bilan bamaslahat, ular bilan kengashib qabul qilingan qaror va tashlanadigan qadamlar mamlakat uchun ham, uning taraqqiyoti, odamlarning roziligi uchun ham o‘ta muhim ekani oydinlashdi. Bu borada O‘zbekiston tajribasi namuna bo‘lishi mumkinligi xalqaro darajada ham e’tirof etilmoqda.

Nufuzli tadbirda bir qancha maqsadlar, manfaatli hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tildi. E’tibor bersangiz, ularning har birida yangi ish o‘rinlari, zamonaviy kasb va sohalarni rivojlantirish bilan bog‘liq masalalar o‘rin olgan.

Umuman olganda, bunday istiqbolli tashabbuslar samarasi o‘laroq yaqin bir necha yil ichida O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarning kirib kelish ko‘lami yanada oshadi. O‘z navbatida, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko‘rsatuvchilar uchun sog‘lom raqobat muhiti shakllanadi. Sifat hamda ish hajmining ortishi yangi ish o‘rinlari yaratish, iste’mol bozorini to‘ldirish bilan bir qatorda, aholining daromadi hamda turmush farovonligi oshishida ham muhim manba bo‘ladi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Joriy yil may oyidan minimal iste’mol xarajatlari qiymati oshdi.**

# TINCHLIK VA XAVFSIZLIK – BUGUNGI SIYOSATNING BOSH MEZONI



*Uch yarim ming yillik tarixga ega o‘zbek davlatchiligi hamisha tinchliksevarligi bilan insoniyat tamaddunida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan. Mazkur an’ana yangi O‘zbekistonni barpo qilishda ham izchil davom ettirilayotir.*

*Bugun O‘zbekiston xalqaro huquqiy institutlarning teng huquqli a’zosi sifatida umume’tirofdagi xalqaro huquqiy normalarning ustuvor bo‘lishiga davlat siyosatining bosh mezoni sifatida yondashmoqda. Bu boradagi ichki va tashqi siyosatimizda “Xavfsizlikni ta’minlash va tinchliksevar davlat barpo etish” pozitsiyasi qat’iyat bilan ilgari surilayotgani, inson manfaatlari ustuvorligi va xalqaro huquq normalarining izchillik bilan bajarilishi birinchi navbatdagi vazifalardandir.*

## Nuqtai nazar

Mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan hamda yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga qaratilgan faol, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosat yuritish, o‘zaro manfaatli ikki hamda ko‘p tomonlama iqtisodiy, ilmiy, ma’naviy-madaniy aloqalarni kengaytirish bo‘yicha muayyan natijalarga erishildi.

Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida mamlakatimizning tashqi siyosat sohasidagi muhim ustuvor yo‘nalishi dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlari bilan strategik sheriklik hamda hamkorlikning muvozanatlangan tizimini shakllantirishdan iborat ekanligi ta’kidlanadi.

O‘tgan yili yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ikkita yirik huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu muhim demokratik jarayonlardan birinchisi — 30-apreldagi umumxalq referendumida yangi tahrirdagi mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilingani bo‘lsa, ikkinchisi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasidir.

Bu muhim hujjatlar, o‘z navbatida, jamiyatimizning siyosiy yetukligini, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqimiz tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanayotganini yana bir bor amalda tasdiqladi. Binobarin, mamlakatimizning yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy zaminida milliy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish, shiddatli va keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish davr talabiga aylandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 17-moddasiga mamlakatimiz tashqi siyosatini ifodalovchi bir qator o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan bo‘lib, ular O‘zbekistonning bugungi kundagi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlarini mujassam etgan. 18-moddada esa O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi, deya belgilangan.

Kiritilgan ushbu o‘zgartirish va qo‘shimchalar xalqaro huquqning umume’tirofdagi tamoyillarini o‘zida mujassam etgan. Zero, yangi O‘zbekiston barcha davlatlar bilan do‘stona va tinchliksevar tashqi siyosat olib borishi bilan bir qatorda, xalqaro huquq normalarini hurmat qilishi va unga og‘ishmay rioya etishini ham ifoda qiladi.

Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosati mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. BMT Nizomining 1-moddasida tashkilot a’zolari orasidagi hamkorlikka e’tibor qaratilib, “inson huquqlari va barchaning irqi, jinsi, tili va dinidan qat’i nazar, asosiy huquqlarining hukumat tomonidan rag‘batlantirilishi va rivojlantirilishi” nazarda tutilgan. Ushbu tamoyilning kiritilishi inson huquqlariga oid xalqaro huquq normalari milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishini ta’minladi.

O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imiji, o‘rni hamda obro‘sini mustahkamlash, barcha davlat va nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik hamda do‘stlik munosabatlarining barqaror tizimini barpo etish, do‘stona, teng huquqli munosabatlarni va o‘zaro manfaatli hamkorlikni muttasil hamda izchil rivojlantirish mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining eng muhim vazifalari sirasiga kiradi. Tashqi siyosatda tinchliksevar davlat sifatida jahonga yuzlanish mamlakatimizning xalqaro maydonda tinchlik va o‘zaro hamkorlikka asoslangan, yuzaga keladigan ziddiyat hamda qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy vositalar orqali hal etishga qaratilgan yo‘ldan borishini ta’minlaydi.

Qisqacha aytganda, yangi O‘zbekistonning tashqi siyosatda do‘stona va tinchliksevar davlat sifatida konstitutsiyaviy e’tirof etilishi uning diplomatik imijini yanada oshirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois Konstitutsiyaning O‘zbekiston tashqi siyosatiga oid normalar xalqaro va davlatlararo munosabatlarda yangicha yondashuv hamda samarali tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshirishni ta’minlashda dasturilamal bo‘lishi, shubhasiz.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi ana shu dolzarb va muhim talabning hozirjavob mevasi, ta’bir joiz bo‘lsa, istiqbolimiz taqdirini hal etuvchi muhim va yangi davr bosqichini o‘zida ifodalagan milliy g‘oyamizdir. Chunki ushbu strategiya xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlashga xizmat qiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan:

— har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

— barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

— suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

— qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini olib borish;

— “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

Boshqacha aytganda, ushbu strategiyada belgilangan maqsad-vazifalar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish uchun o‘ziga xos “Yo‘l xaritasi” vazifasini o‘taydi. Mazkur strategiyaning ijrosi va uning maqsadli ko‘rsatkichlariga erishish davlat organlari va tashkilotlarning eng ustuvor vazifasidir.

E’tibor bering, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsad va chora-tadbirlar, ustuvor vazifalar ijrosidan yurtimizdagi har bir insonga qulay imkoniyat, muayyan yengilliklar, moddiy-ma’naviy manfaat yetib, har qaysi oila va xonadon to‘kinlik, fayz va baraka topadi.

Beshinchi ustuvor yo‘nalish, ya’ni “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirishga qaratilgan 11 ta maqsad doirasida 63 ta chora-tadbir va 23 ta vazifa bajariladi. Xususan, tashqi siyosat, Jahon savdo tashkilotiga a’zolik, xorijdagi vatandoshlar, mehnat migratsiyasi, Qurolli Kuchlar, favqulodda vaziyatlar, millatlararo totuvlik masalalariga aloqador 21 ta maqsadli ko‘rsatkichni ishlab chiqish va 11 ta normativ-huquqiy hujjat loyihalarini tayyorlash talab etiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish” yo‘nalishi bo‘yicha joriy yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasiga muvofiq, bir qator vazifalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Jumladan, O‘zbekistonda “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzuida xalqaro konferensiya tashkil etish, Markaziy Osiyoda mintaqaviy ekologik masalalarni muhokama qilishga qaratilgan parlamentlararo hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, strategik hamkorlik shartnomasi imzolangan davlatlar bilan keng qamrovli aloqalarni yanada chuqurlashtirish va kengaytirish, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni izchil davom ettirish shular sirasiga kiradi.

Qolaversa, xorijiy mamlakatlar va yurtimizdagi boshqa millat vakillari bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish, “Do‘stlik” festivalini tashkil etish va uni yuqori saviyada o‘tkazish ham ko‘zda tutilgan. Albatta, mazkur vazifalarning o‘z vaqtida va yuqori saviyada bajarilishi har bir O‘zbekiston fuqarosining, Vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga bel bog‘lagan davlat xizmatchisining, kelajagimiz egasi bo‘lgan yoshlarimizning, xullas, barcha-barchaning hayoti farovon bo‘lishiga, ezgu maqsadlarimiz amalga oshishiga xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekiston xavfsiz, tinchliksevar va inson huquqini ta’minlaydigan davlat sifatida xalqaro maydonda o‘z so‘ziga ega. Tinchlik bor joyda esa rivojlanish bo‘ladi, obodlik bo‘ladi. Zotan, dono xalqimiz aytganidek, tinchlik bilan el ko‘karar, yomg‘ir bilan yer ko‘karar. Shunday ekan, mamlakatimiz qudratini yanada yuksaltirish, uning gullab-yashnashiga har qachongidan ko‘proq hissa qo‘shish shu yurt farzandlarining sharafli burchi bo‘lmog‘i lozim.

**Muhsin HOJIYEV,**
**Guliston davlat universiteti rektori,**
**texnika fanlari doktori, professor.**

## QISQA SATRLARDA

### Huquqiy masalalar bo‘yicha fikr almashildi

*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida qator uchrashuvlar bo‘lib o‘tdi. Xususan, Bosh prokuror o‘rinbosari Svetlana Ortiqova Yassir Abdih boshchiligidagi Xalqaro valyuta jamg‘armasi delegatsiyasi bilan uchrashdi.*

Muloqotda hamkorlikning bugungi holati va uni yanada rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari muhokama qilindi. Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikning boshqa turlariga qarshi kurashish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan fikr almashildi.

### Ilmiy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Til va adabiyot: ilmiy va amaliy izlanishlar yo‘lidagi ilk odimlar” mavzuida ilmiy-amaliy anjuman bo‘lib o‘tdi.*

Tadbirda talabalar “Ustoz – shogird” an’anasi asosida o‘z ustozlari bilan birgalikda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik, o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, amaliy filologiya, folklorshunoslik hamda shevashunoslikning dolzarb muammolari yuzasidan tayyorlagan ilmiy ma’ruzalari bilan qatnashdi.

### “Inson uchun!”

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashabbusi bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda “O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazmalar majmuasida “Inson uchun” respublika savdo ko‘rgazmasi tashkil etildi.*

Unda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, xodimlari umumiy sonining kamida 50 foizi nogironligi bo‘lgan shaxslardan iborat 200 nafar tadbirkor va hunarmand mebel va tekstil, poyabzal, sport, texnika, poligrafiya, oziq-ovqat va boshqa turdagi mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

### Ildizi asrlarga tutash Surxondaryo

*Termiz shahrida “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali doirasida “Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o‘rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.*



Mahalliy hamda xorijlik olimlar, ilmiy tadqiqotchilar ishtirok etgan ushbu tadbirda Surxondaryoning jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rni, dunyo tarixi hamda madaniyatidagi mavqei, shuningdek, o‘lkaning moddiy va nomoddiy madaniyat asoslarini yanada chuqurroq tadqiq etish, o‘zbek hamda boshqa xalqlar tarixini ilmiy o‘rganish, o‘zaro ijodiy muloqotni yo‘lga qo‘yish kabi masalalar muhokama qilindi.

**“Xalq so‘zi” va O‘zA materiallari asosida tayyorlandi.**

REKLAMA

# BAZALT ASOSLI MAHSULOTLARNI IQTISODIYOTNING TURLI SOHALARIDA QO‘LLASH NATIJADORLIGI TAHLIL QILINDI

SANOAT QURILISH BANK

***Jizzax viloyatining Forish tumanida bazalt asosli mahsulotlarni iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llash samaradorligi mavzuida xalqaro forum tashkil etildi. Unda yirik buyurtmachilar, qurilish korxonalari, loyihalash institutlari va boshqa manfaatdor vazirlik, idoralar vakillari, mahalliy va xorijiy ishbilarmonlar ishtirok etdi. Tadbir qimmatli ma’lumotlar, manfaatli bitimlar hamda qizg‘in muloqotlarga boy kechdi.***



## Forum

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev shu yil 8-9-aprel kunlari Jizzax viloyatiga tashrifi chog‘ida “Basalt Uzbekistan” klasteri faoliyati misolida bazalt mahsulotlari afzalliklarini keng targ‘ib etish, ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish hamda tashqi bozorga chiqishni yanada faollashtirish bo‘yicha aniq vazifalarni belgilab bergandi. Shunga ko‘ra, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB va “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi hamkorligida tashkil etilgan xalqaro forum ishtirokchilar uchun tajriba almashish hamda samarali hamkorlik o‘rnatish maydoniga aylandi, desak, mubolag‘a emas.

— Forish tumanining Osmonsoy konidagi qimmatli topilma — bazalt toshlari mamlakatimiz sanoat tarmog‘i uchun muhim voqelik bo‘ldi, — deydi “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi raisi maslahatchisi Bahodir Ismoilov. — “Basalt Uzbekistan” klasteri tashabbuskorlari tomonidan amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar esa yurtimizda ushbu turdagi yangi konlarni aniqlashga turtki berdi. Bugungi kunda O‘zbekiston hududida jami 17 ta (345,9 mln. tonna) mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt xomashyosi mavjud kon aniqlandi. Ularning 82 foiziga qazib olish huquqi berilgan bo‘lsa, qolgan konlarni o‘zlashtirish ishlari olib borilmoqda. Jizzax (30,3 mln. tonna), Qoraqalpog‘iston (2,2 mln. tonna), Navoiy (2,6 mln. tonna), Namangan (310,6 mln. tonna) va Samarqand viloyatlaridagi (0,2 mln. tonna) konlar shular sirasiga kiradi.

Respublikada bazalt toshidan yiliga 194 ming tonnalik issiqlik saqlovchi mineral plitalar, 16 ming tonnalik bazalt tolasi va fibra, 2 ming tonnalik bazalt armaturasi, 5 ming tonnalik kompozit quvurlar va 9 ming tonnalik kompozit geosetkalar ishlab chiqaruvchi 9 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Ulardan biri Forish tumanidagi 46,8 gektar maydonni egallagan “Basalt Uzbekistan” klasteridir.

Forumda klasterning bugungi imkoniyatlari hamda rejalari taqdimot qilindi. Yiliga bazalt toshidan olinayotgan 177 ming tonna maxsus tola va uning asosida ishlab chiqarilayotgan 42 turdagi mahsulotlarning 80 foizi AQSH, Buyuk Britaniya, Polsha, Italiya, Chexiya, Gruziya, Rossiya, Turkiya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi davlatlarga eksport qilinayotgani ko‘pchilik e’tiborini tortdi.

— O‘zbekiston Prezidentining sohani ilmiy tomonlama rivojlantirish borasida bergan ko‘rsatmalari tahsinga loyiq, zero har qanday kashfiyot va taraqqiyot ilm-fan asosida yuzaga keladi, — deydi Koreya muhandislik va qurilish texnologiyalari instituti professori Kim Xong Sop. — Faoliyatimiz qurilish va qurilish materiallari sohasida amaliy tadqiqotlarni rivojlantirishga asoslangan. O‘tgan yilda jamoamiz tomonidan qariyb 140 mln. dollarlik ilmiy izlanishlar olib borildi. O‘zbekistonda ham “R&D tadqiqotlar markazi”ni tashkil etib, ishlab chiqarish korxonalari hamda olimlar o‘rtasida “aloqa zanjiri”ni ta’minlash harakatidamiz. Bu sanoat rivojini 5 — 10 yilga tezlashtiradi, mahalliylashtirishni kuchaytiradi, ilg‘or texnologiyalarni mahalliy sharoitda qo‘llash samaradorligini oshiradi.

Forum dasturiga ko‘ra ishtirokchilar O‘zbekistonda bazalt asosida innovatsion qurilish materiallari ishlab chiqarish holati va istiqbollari bilan tanishtirildi.

Mahsulot sifati va xususiyatlari, laboratoriya sinovlari va sertifikatlash, logistika kabi masalalar yuzasidan fikr almashildi. Bu borada jahon standartlari, ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan izlanishlar va yangiliklar, ilg‘or texnologiya va uskunalar taqdimoti tashkil etildi.

— Klasterimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan bazalt tolasi hamda bazalt asosidagi mahsulotlar issiq va sovuqqa o‘ta bardoshli, yengil va mustahkamligi bois xorijiy davlatlarda sanoat va xalq xo‘jaligining ko‘pgina sohalarida keng qo‘llaniladi, — deydi “Basalt Uzbekistan” kompaniyasi tijorat direktori Temur Mamadaminov. — Forum doirasida mahsulotlar afzalliklari mahalliy quruvchi, loyihachi va buyurtmachilarga ham yaqindan tanishtirildi, ularni jahon bozorida xaridorgir bo‘lgan korxonamiz mahsulotlaridan samarali foydalanishga undadi, to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha zarur bilim va ko‘nikmalar ulashildi.

Tadqiqotchi olimlar ishtiroki forum ahamiyatini yanada oshirdi. Ular tomonidan bazalt mahsulotlarining fizik-mexanik xossalarini kuchaytirish bo‘yicha berilgan tavsiyalar barcha uchun qiziqarli bo‘ldi.

Umuman, forum ishi davomida ilm-fan har qanday sohada sifatni oshirish, ishlab chiqarish korxonalarida tadqiqot ehtiyojini qanoatlantirish va texnologik jihatdan tirgak bo‘lishini yana bir bor isbotladi.

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB axborot xizmati.**

*Xizmatlar litsenziyalangan.*

**Xalqaro toifadagi hakam Ravshanbek Mirzayev “Parij — 2024” bellashuvlarida dunyoning eng kuchli atletlari ishtirokidagi bahslarni baholab boradi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Shernazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 02.00 Topshirildi — 04.10 1 2 3 4 5 6